

Farmoko-toksikologiya sohasidagi taniqli olim Jumadilla Rejepov vafot etdi

O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti farmakologiya va toksikologiya bo'limi mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi Jumadilla Rejepov vafot etdi.



Jumadilla Rejepov 1950-yilda Toshkent viloyatida tug'ilgan. Faoliyatining deyarli barcha davrida O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutida ishlagan holda, u o'simlik moddalariga asoslangan dorivor preparatlarning eksperimental farmakologiyasi va toksikologiyasini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. U Institutda ishlab chiqarilgan o'nlab dorilarning hammuallifi, jumladan Aksaritmin, Antiaritmin, Ferulen, Digidroatizin, N-metiltsitizin va boshqalar. Jumadilla Rejepov izoxinolin alkaloidlari, neyro- va psixofarmakologiya, metabolizm jarayonlari farmakologiyasi, yurak-qon tomir tizimi farmakologiyasini o'rganishga katta hissa qo'shgan, 250 dan ortiq ilmiy ishlar va patentlarning muallifi bo'lgan.

U Institutda ishlab chiqarilgan dori-darmonlarning aksariyatini klinik oldi toksikologik tekshiruvlarini boshqargan, yosh olimlarga mexribon ustoz va bir qator ilmiy loyihalarning rahbari bo'lgan. Jumadilla Rejepov ko'p yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Farmakologiya qo'mitasining eksperti, shuningdek, O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti Ilmiy kengashining a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Farmakologiya va farmatsevtika bo'yicha ilmiy texnik kengashning a'zosi bo'lgan.

Olim Jumadilla Rejepov vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda Institut jamoasi nomidan chuqur hamdardlik bildiramiz!